

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

RADJAPOV AZAMAT XUDAYNAZAROVICH

**DAVLAT ORGANLARI FAOLIYATI OCHIQLIGINI
TA'MINLASHNING TASHKILY-HUQUQIY JIHLTLARI**

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma'muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

**yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Radjapov Azamat Xudaynazarovich

Davlat organlari faoliyati ochiqligini ta'minlashning
tashkiliy-huquqiy jihatlari 3

Radjapov Azamat Khudaynazarovich

Organizational and legal aspects of ensuring openness
of the activities of state bodies 21

Раджапов Азамат Худайназарович

Организационно-правовые аспекты обеспечения открытости
деятельности государственных органов 38

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'uxati

Список опубликованных научных работ
List of published scientific works 42

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

RADJAPOV AZAMAT XUDAYNAZAROVICH

**DAVLAT ORGANLARI FAOLIYATI OCHIQLIGINI
TA'MINLASHNING TASHKILY-HUQUQIY JIHLTLARI**

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma'muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

**yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2020.4.PhD/Yu269 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsul.uz) va “ZiyoNET” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ro‘ziyev Zafar Rayimovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mirakulov Miravzal Mirodilovich
yuridik fanlar doktori, professor

Turg‘unov Oybek Karimovich
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Davlat va huquq instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 23-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (998) 71-233-66-36; faks: (998) 71-233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1145 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 10-mayda tarqatildi.

(2023-yil 10-maydagi 9-raqamli reyestr bayonnomasi).

R.R.Xakimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

B.A.Narimanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

I.R.Bekov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda globallashtirish sharoitida aholining axborotga bo'lgan talabi tobora ortib borayotgani davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash sohasiga mutlaqo yangicha yondashuv hamda usullarni keng joriy etishni, shuningdek, qonunchilik hujjatlarini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Ushbu yo'nalishda mamlakatimizda davlat organlarining faoliyati to'g'risida keng jamoatchilikka muntazam ravishda axborot taqdim etib borish, ushbu organlar mansabdor shaxslarining hisobotini eshitish, shuningdek, fuqarolarning huquqlari va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga daxldor axborotni aholiga o'z vaqtida etkazish masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Jahonda fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlash, insonning axborotni erkin olishi hamda hech qanday moneliksiz tarqatishini kafolatlash orqali davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini, ularning mansabdor shaxslarining xalq oldida hisob berish tizimini va bu boradagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda jismoniy va yuridik shaxslarning axborot olish erkinligi kafolatlarini yanada kuchaytirish, jamoatchilik xabardor bo'lishi kerak bo'lgan davlat organlarining faoliyati haqidagi ma'lumotlar doirasini izchil kengaytirish, davlat organlari faoliyatiga "ochiqlik indeksi"ni keng tatbiq qilish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining bir qator yo'nalishlarida "ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan yangi mexanizmlarni joriy etish"¹ ustuvor vazifalar qatorida belgilangani davlat organlari va ularning mansabdor shaxslarining mas'uliyatini oshirishda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bundan tashqari, 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendum asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o'ndan ortiq moddalarida bevosita davlat organlari faoliyatining ochiqligini hamda jamiyatni axborot bilan ta'minlashga xizmat qiluvchi normalarning mustahkamlab qo'yilgani ushbu sohani ilmiy jihatdan tadqiq etish muhim vazifalardan biri ekanligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida" (1997), "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida" (2002), "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida" (2014), "Elektron hukumat to'g'risida" (2015), "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi (2018) qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat boshqaruvining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash hamda mamlakatning statistika salohiyatini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 9-apreldagi PQ-4273-son qarori, "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.

doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 16-iyundagi PF–6247-son hamda “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 14-iyundagi PF–154-son farmonlarida va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Davlat organlari faoliyati ochiqligini ta’minlashning tashkiliy-huquqiy jihatlariga doir masalalar alohida mavzu doirasida to‘liq o‘rganib chiqilmagan bo‘lsada, A.A.Azizxo‘jayev, J.M.Abdullayev, Sh.G‘.Asadov, Sh.M.Asyanov, M.A.Axmedshayeva, F.X.Bakayeva, X.T.Mamatov, M.M.Mirakulov, B.A.Omonov, F.A.Primov, Z.R.Ro‘ziyev, E.K.Sabirov, A.X.Saidov, A.S.Tursunov, R.R.Xakimov, I.A.Xamedov, U.Sh.Xusainov, O.T.Xusanov, A.E.Yo‘ldashev kabi huquqshunos olimlarning ushbu sohani u yoki bu jihatlarini ochib berishga qaratilgan tadqiqotlari e‘lon qilingan¹.

MDH davlatlarida davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar olib borgan O.V.Afanasyeva, O.A.Aleksandrova, O.V.Axrameeva, I.A.Beginina, F.I.Belozor, I.A.Damm, I.A.Juravleva, D.V.Karpuxin, E.A.Kleymenov, N.Yu.Korchenkova, L.A.Krivososova, T.A.Kulakova, K.V.Melixov, T.M.Rezer, N.V.Shedrin, V.A.Sologub, V.A.Suxanova, E.N.Tovanchova, N.V.Vlasova kabi olimlarning tadqiqot ishlari mavzuning ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash bilan bog‘liq jihatlariga bag‘ishlangan².

Xorijlik olimlardan D.Bevilakva, Ch.Dana, D.Dornum, E.Florini, J.Foks, A.Gomm, X.Gurria, V.Kastelnovo, S.Kesadi, X.Keyren, M.Kinsi, M.Kirn, P.Rouds, J.Rouz, A.Robinson, D.Robinson, F.Shauer, M.Skott, D.Tapskott, S.Tolbert, L.Vilone, T.Xarrison, A.Yansen va boshqalarning ilmiy ishlarida “Ochiq Hukumat” bilan bog‘liq masalalar bayon qilingan³.

Mamlakatimizda davlat organlari faoliyati ochiqligini ta’minlashning tashkiliy-huquqiy jihatlari milliy qonunchilik va xorijiy davlatlarning tajribasini inobatga olgan holda, konstitutsiyaviy huquq nuqtai nazaridan chuqur tadqiq etilmaganligi sababli ushbu mavzuni kompleks tarzda o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida davlat boshqaruvini yanada erkinlashtirishning asosiy yo‘nalishlari” mavzusidagi fundamental loyihasi (2017 – 2021-y.) doirasida bajarilgan.

¹ Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

² Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

³ Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

Tadqiqotning maqsadi davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash samaradorligini oshirish hamda bu boradagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslantirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi:

davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash tushunchasi va yuridik tabiatini tahlil qilish;

davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash jarayoni va uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

davlat organlari faoliyati ochiqligini ta'minlashning normativ-huquqiy asoslari va ushbu sohada huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish;

davlat organlari faoliyati ochiqligini ta'minlashning tashkiliy mexanizmlarini tizimli tahlil qilish;

davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash tartibi va usullarini qo'llash masalalarini tadqiq qilish;

xorijiy davlatlar tajribasi va xalqaro standartlarni tahlil qilgan holda, davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini oshirish bo'yicha yangi mexanizmlarni ishlab chiqish zaruratini asoslab berish;

davlat organlari faoliyati ochiqligini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy jihatlarini tadqiq etish orqali ochiqlikni ta'minlash jarayonini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini ko'rsatib berish.

Tadqiqotning obyekti davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlashga doir qonunchilik hujjatlari, huquqni qo'llash amaliyoti, xorijiy davlatlar qonunchiligi va xalqaro standartlar, mazkur mavzuga bag'ishlangan ilmiy asarlar, statistik va tahliliy materiallar, shuningdek, yuridik fandagi konseptual yondashuvlar hamda ilmiy-nazariy qarashlardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida analiz, sintez, induksiya, deduksiya, qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil, tarixiylik, statistik ma'lumotlar tahlili va ijtimoiy so'rov usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash bo'yicha mansabdor shaxslarning mas'uliyatini oshirish va javobgarligini belgilashning huquqiy asoslarini takomillashtirish zarurati asoslab berilgan;

davlat organlari va tashkilotlarining o'z faoliyati bo'yicha jamoatchilik oldida elektron hisobot berish tartibini joriy qilish zarurati asoslangan;

davlat organlari, xo'jalik birlashmalari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining rasmiy veb-saytida joylashtirilishi majburiy bo'lgan axborotlar ro'yxatini belgilash lozimligi asoslantirilgan;

ochiq ma'lumotlar sohasidagi xalqaro reytinglar, xususan, "Ochiq ma'lumotlar global indeksi" va "Ochiq ma'lumotlar barometri" reytinglarida mamlakatimiz ishtirokini ta'minlash uchun Xalqaro ochiq ma'lumotlar xartiyasiga qo'shilish zarurligi asoslantirilgan;

davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini monitoring qilish va baholash metodikasini qabul qilish zarurati asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ilmiy tahlillar asosida “davlat organlari faoliyatining ochiqligi” tushunchasiga mualliflik ta’rifi berilib, “ochiqlik”, “shaffoflik” hamda “transparentlik” kabi tushunchalarning farqlari aniqlashtirilgan, shuningdek, mamlakatimizda davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlashga doir qonunchilikning rivojlanish bosqichlari ochib berilgan;

fuqarolar bilan ochiq muloqot hamda ularning qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etishini nazarda tutuvchi davlat organlari faoliyati ochiqligini ta’minlashning xalqaro tan olingan “yangi davlat boshqaruvi” (“New Public Management”) modelini amalga oshirish zarurati ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan;

O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga davlat organlari faoliyatining ochiqligini, shu jumladan, mansabdor shaxslarning xalq oldida hisobdorligini ta’minlashni takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

davlat organlarining ochiq hay’at majlislarini o‘tkazish vaqti hamda unda ishtirok etish tartibi haqida axborotdan foydalanuvchilarni va ommaviy axborot vositalari vakillarini xabardor qilgan holda, ushbu majlislarda har yarim yilda bir marta ochiqlikni ta’minlashga qaratilgan qonunchilik hujjatlari ijrosini tanqidiy muhokama qilish lozimligi isbotlangan;

O‘zbekistonning xalqaro reytinglar bo‘yicha, jumladan, “Hukumatning ochiqligi” (“Open Government Factor”), Ochiq ma’lumotlar inventarizatsiyasi (“The Open Data Inventory”), Elektron hukumatni rivojlantirish reytinglari (“E-Government Survey”), Global ma’lumotlar barometridagi (“The Global Data Barometer”) o‘rnini yaxshilash, “Xalqaro byudjet hamkorligi”ning (“International budget partnershir”) Byudjet ochiqligi indeksiga (“Open Budget Index”) kirishi, “Ochiq Hukumat hamkorligi” (“Open Government Partnership”) xalqaro tashkilotiga a’zo bo‘lishiga doir takliflar asoslantirilgan;

ochiq ma’lumotlar sifatida joylashtiriladigan ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlar ro‘yxatini kengaytirish, davlat organlari tomonidan e’lon qilingan ma’lumotlarning sifati, foydaliligi va dolzarbligini baholash tizimini joriy etish, shuningdek, Ochiq ma’lumotlar va “openbudget.uz” portallarini takomillashtirishning dolzarbligi asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo‘llash amaliyoti, so‘rovnoma, ekspert baholash shakllariga asoslangan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o‘tkazilib, natijalari yetakchi milliy hamda xorijiy nashrlarda e’lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalardan davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash masalalari bo‘yicha ilmiy faoliyatda, huquqni qo‘llash amaliyotida, milliy qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish va “Konstitutsiyaviy huquq”, “Ma’muriy huquq” fanlarini o‘qitishda hamda ilmiy-nazariy jihatdan boyitishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ularning amaliyotga tatbiq etilishi davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash jarayonlarining huquqiy tartibga solish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, sohaga xalqaro standartlarni joriy etish orqali keng jamoatchilikka davlat organlari faoliyati to'g'risida o'z vaqtida, aniq, to'liq va ishonchli axborot taqdim etish tizimini yo'lga qo'yishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Davlat organlari faoliyati ochiqligini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy jihatlariga oid tadqiqot bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikni belgilash to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 3-avgustdagi O'RQ-786-son Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga 215⁷-modda kiritilishida foydalanilgan (Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Innovatsion rivojlanish, axborot siyosati va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasining 2022-yil 31-avgustdagi 04/11-12-60-son dalolatnomasi). Mazkur taklif davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash bo'yicha mansabdor shaxslarning mas'uliyati yanada oshirilishiga xizmat qilgan;

davlat organlari va tashkilotlarining o'z faoliyati bo'yicha jamoatchilik oldida elektron hisobot berish tartibini belgilash haqidagi taklifdan Vazirlar Mahkamasining "Elektron hukumat tizimini yanada rivojlantirish, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining o'z faoliyati bo'yicha jamoatchilik oldida elektron hisobot berishi tartibini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 16-iyuldagi 444-son qarorining 4-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (Vazirlar Mahkamasi Yuridik ta'minlash boshqarmasining 2022-yil 30-avgustdagi 12/21-64-son dalolatnomasi). Mazkur taklif davlat organlari mansabdor shaxslarining rasmiy veb-saytlari va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari orqali hisobot taqdim etish tizimining yo'lga qo'yilishiga xizmat qilgan;

ochiq ma'lumotlar sohasidagi xalqaro reytinglar, xususan, "Ochiq ma'lumotlar global indeksi" hamda "Ochiq ma'lumotlar barometri" reytinglarida mamlakatimiz ishtirokini ta'minlash maqsadida Xalqaro ochiq ma'lumotlar xartiyasiga qo'shilish masalasini ko'rib chiqish to'g'risidagi taklifdan Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida ochiq ma'lumotlar sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 23-dekabrda 808-son qarorining 5-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (Vazirlar Mahkamasi Yuridik ta'minlash boshqarmasining 2022-yil 30-avgustdagi 12/21-64-son dalolatnomasi). Ushbu taklif O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvarda "Xalqaro ochiq ma'lumotlar xartiyasi"ga ("International Open Data Charter") qo'shilishiga xizmat qilgan;

davlat organlari, xo'jalik birlashmalari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining rasmiy veb-saytida joylashtirish uchun majburiy bo'lgan axborotlar ro'yxatini belgilash to'g'risidagi taklifdan Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi 373-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat organlari, xo'jalik birlashmalari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyati organlarining rasmiy veb-saytiga qo'yiladigan Asosiy talablarning 1-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (Vazirlar Mahkamasi Yuridik ta'minlash boshqarmasining 2022-yil 30-avgustdagi 12/21-64-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning tatbiq etilishi rasmiy veb-saytlarda joylashtirilishi majburiy bo'lgan axborotlar doirasining aniq belgilanishiga xizmat qilgan;

davlat organlari hamda tashkilotlari faoliyatining ochiqligini monitoring qilish va baholash bo'yicha metodikani qabul qilish to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 14-iyundagi PF-154-son Farmonining 3-bandini tayyorlashda foydalanilgan (Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2022-yil 5-sentabrdagi 03-07/4002-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi davlat organlari faoliyatining ochiqligini baholash tizimining yaratilishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishining natijalari 8 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro, 6 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya va davra suhbatlari hamda seminarlarda sinovdan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya va dissertatsiyaning asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 9 ta (shundan 2 tasi xorijda) maqola va to'plamlar tarkibida 10 ta ilmiy maqola (shundan 3 tasi xorijda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, yettita paragrafni ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan iborat bo'lib, uning hajmi 132 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, uning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprotatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobi "**Davlat organlari faoliyati ochiqligini ta'minlashning nazariy-huquqiy tahlili**" deb nomlanib, ikki paragrafni o'z ichiga oladi. Ushbu bobda davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash tushunchasi va yuridik tabiati hamda davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash jarayoni va uning xususiyatlari tadqiq etilgan.

Tadqiqotchining fikricha, davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash demokratik huquqiy davlat barpo etishning muhim sharti va har kimning axborotni erkin izlash, olish va uni tarqatishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishning vositasi sifatida e'tirof etiladi.

Shunga ko'ra "davlat organlari faoliyatining ochiqligi", shu jumladan, "ochiqlik", "oshkoralik", "shaffoflik", "transparentlik" tushunchalarining ilmiy-nazariy jihatlari bo'yicha milliy va xorijiy olimlar (I.Xamedov, Sh.Asadov, U.Xusainov, A.Tursunov, F.Primov, Sh.Asyanov, D.Axrarova, A.Yo'ldoshev, E.Sabirov, L.Krivosova, Yu.Nisnevich, I.Juravlyeva, T.Kulakova, M.Lapina O.V.Axrameeva, N.Vlasova, I.Beginina, O.Afanasyeva, I.Damm, F.Belozor, T.Rezer, J.Foks, Don Tapskott,

A.Florini¹⁾ tomonidan bildirilgan fikrlarning tahlili asosida, tadqiqotchi – “davlat organlariga nisbatan “ochiqlik” tushunchasidan foydalanish o‘rinli, deb ta’kidlaydi. “Ochiqlik” axborotdan foydalanuvchilarning davlat organlari faoliyati to‘g‘risida axborot olish huquqining kafolatlarini ta’minlashni nazarda tutsa, “shaffoflik” ochiqlikning tarkibini ifodalab, bu davlat organlarining o‘z faoliyatini amalga oshirishi va qarorlar qabul qilishi bilan bog‘liq barcha jarayonlarning jamoatchilik uchun oshkoraligini bildiradi. “Oshkoralik” tushunchasi sud hokimiyati organlarining faoliyatiga, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining axborotni olish va tarqatish kafolatlarini tavsiflashga nisbatan qo‘llaniladi. Xorijiy davlatlarda esa axborotning ochiqligini ifodalash uchun “ochiqlik” va “shaffoflik” tushunchalarining muqobili sifatida “transparent” tushunchasi ishlatiladi”, degan xulosaga kelgan.

Dissertant davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishda, eng avvalo, “davlat organlari faoliyatining ochiqligi” tushunchasining mohiyatini aniqlashtirish, uni qonunchilik hujjatlarida aks ettirish zarurligini ta’kidlaydi. Ushbu tushuncha yuzasidan shakllangan yondashuvlar tahlili asosida unga quyidagicha mualliflik ta’rifini bergan: “davlat organlari faoliyatining ochiqligi – bu davlat organlari tomonidan aholi va tadbirkorlik subyektlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari foydalanishi uchun o‘z faoliyati to‘g‘risida ishonchli, aniq va to‘g‘ri axborotlarni izlash, o‘z vaqtida olish hamda tarqatish imkonini beruvchi shart-sharoitlarning yaratilganligidir”.

Muallif bugungi globallasuv sharoitida davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash jarayonlarini chuqur tahlil qilish orqali uning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritishga harakat qilgan. Tadqiqotchi ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar, jumladan, M.Kirn, T.Rezer, N.Korchenkova, E.Chirkin, N.Anoxin, L.Umek, I.Rakar, M.Trtnik, V.Kostaneves, D.Bevilakva, J.Bremers hamda V.Deleu kabi olimlarning fikrlarini umumlashtirgan holda, “davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash jarayoni – bu axborotdan hammaning foydalanishi uchun qonunda belgilangan tartibda davlat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlar jumlasiga kiritilmagan davlat organlari faoliyati to‘g‘risidagi axborotlarni ushbu organlarning rasmiy nashrlari, davlat organlari rahbarlarining, shuningdek, ushbu organlar tomonidan vakolat berilgan mansabdor shaxslarning chiqishlari va bayonotlari, axborot xizmatlarining xabarlari, rasmiy veb-saytlar hamda ommaviy axborot vositalarining materiallari orqali e’lon qilish (chop etish) bilan bog‘liq xatti-harakatlar majmuidir”, degan xulosaga kelgan.

Muallif tomonidan olimlarning (N.Korchenkova, M.Abrasimov, N.Anoxin, A.Strizoe, I.Damm, E.Oxotskiy va E.Chirkin²⁾) ilmiy qarashlari hamda yondashuvlari tahlili asosida davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash jarayonida fuqarolarning ishtiroki quyidagi uchta darajaga ajratib ko‘rsatilgan:

¹ Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

² Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

1. Ijtimoiy-siyosiy axborotlarga kirish imkoniyati. Axborotning ochiqligi qabul qilingan qarorlarni aks ettiruvchi axborot hujjatlariga ega bo‘lish orqali ta’minlanadigan davlat organlari faoliyati to‘g‘risidagi axborotga kirish imkoniyati bilan belgilanadi.

2. Qarorlar qabul qilish jarayoniga kirish imkoniyati. O‘rta darajadagi ochiqlik. Fuqarolarning qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etishi ularning sabablari hamda kutilayotgan natijalari xususidagi axborotlardan foydalanish imkoniyatining yaratilganligi bilan belgilanadi.

3. Fuqarolik jamiyati institutlari vakillari, jumladan, alohida tashkilotlar va shaxslar ishtirokida ochiq qarorlar qabul qilish jarayoniga kirish imkoniyati. Bu jarayonda aholining qarorlar qabul qilishdagi savodxonligi, siyosiy munozaralar olib borish madaniyati muhim o‘rin egallaydi.

Dissertant G.Aubakirova, F.Isatayeva, A.Ingrams, S.Piotrovski, D.Berliner, Xardi Keyren, Ye.Kipervar, Ye.Mamay, M.Mizya, J.Ballok, L.O‘tul, S.Kasadi, K.Eriksson va R.Levitt, V.Skott kabi olimlarning davlat boshqaruvida ochiqlikni ta’minlashning zamonaviy modellariga oid fikrlarini ilmiy tahlil qilgan holda, fuqarolar bilan muloqot va ularning qarorlar qabul qilish jarayonlaridagi ishtirokini nazarda tutuvchi ochiqlikni ta’minlashning xalqaro tan olingan “**yangi davlat boshqaruvi**” (“New Rublis Management”) modelini joriy etishni taklif etgan.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi “**Davlat organlari faoliyati ochiqligini ta’minlashning tashkiliy-huquqiy asoslari**” deb nomlanib, uchta paragrafni o‘z ichiga oladi.

Ushbu bobda tadqiqotchi tomonidan O‘zbekistonda davlat organlari faoliyati ochiqligini ta’minlashning huquqiy asoslari, ularning rivojlanish bosqichlari, ochiqlikni ta’minlash prinsiplari, davlat organlari faoliyati ochiqligini ta’minlashning tashkiliy mexanizmlari hamda uning zamonaviy shakl va usullari ochib berilgan.

Tadqiqotchi O‘zbekistonda davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarning rivojlanishini quyidagi davrlarga bo‘lishni taklif etgan:

birinchi bosqich – 1991 – 2010-yillarni o‘z ichiga olib, ushbu davrda davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlashga oid qonunchilik asoslari shakllandi, mazkur institutni joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rildi;

ikkinchi bosqich – 2011 – 2016-yillarni qamrab olib, mazkur davrda davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash, fuqarolarning axborot olish erkinligi kafolatlarini mustahkamlashga qaratilgan maxsus qonunchilik hujjatlari qabul qilindi hamda axborotning va davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlashga qaratilgan normalar qonunchilik hujjatlariga singdirila boshlandi;

uchinchi bosqich – 2017-yildan hozirgi vaqtga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga olib, unda davlat organlari faoliyati ochiqligini ta’minlashning tashkiliy-institutsional asoslari takomillashtirildi va davlat organlari faoliyatining ochiqligini baholash bo‘yicha yaxlit tizim yaratildi.

Dissertant tomonidan ochiqlikni ta’minlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan K.Melixov, V.Sologub, I.Xashyeva, A.Gryonlund, T.Xoran, J.Guida, M.Krov, R.Hiks, S.Mutula, G.Maiga, T.Fild, E.Myuller, S.Shin, E.Lau, K.Vergez singari olimlarning fikrlari tahlil qilingan holda, davlat organlari faoliyatining ochiqligini

ta'minlash quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanishi kerak, degan fikr ilgari surilgan: axborotning ochiqligi va unga to'siqsiz kirish imkoniyati; axborotning ishonchliligi va o'z vaqtida taqdim etilishi; axborotni qonuniy asosda har qanday yo'l bilan izlash, olish, uzatish hamda tarqatish erkinligi; axborot taqdim etishda fuqarolarning shaxsiy daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirlari, sha'ni va xizmat nufuzini himoya qilish, tashkilotlarning o'z xizmat nufuzini himoya qilish huquqlariga rioya qilish.

Tadqiqotchi tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida X.Mamatov, O.Aleksandrova, Ye.Tovanchova, O.Malaxova, V.Suxanova, S.Zolner, V.Kastelnovo, J.Person, V.Delone, V.Golden kabi olimlarning fikrlari tahlili asosida davlat organlari faoliyati ochiqligini ta'minlashning quyidagi tashkiliy-huquqiy muammolariga to'xtalib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar bildirilgan: 1) davlat organlarining mansabdor shaxslari tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda aholi bilan ochiq muloqotini yo'lga qo'yish; 2) aholiga elektron davlat xizmatlari ko'rsatishni yanada takomillashtirish orqali davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash; 3) ochiqlikni ta'minlash uchun davlat organlari tomonidan joriy etilgan kommunikatsiya texnologiyalarini doimiy takomillashtirib borish; 4) ochiqlikni ta'minlash va jamiyatga axborot taqdim etishda ijtimoiy tarmoqlarning imkoniyatidan to'g'ri foydalanish.

Dissertantning fikricha, ijtimoiy tarmoqlar orqali davlat organlari faoliyati ochiqligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'lishi zarur: 1) fuqarolarni xabardor qilish: yangiliklar, ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlar, foto va videoreportajlar, rasmiy veb-saytga havolalarni e'lon qilish; 2) fuqarolarni jalb qilish: muhokamalar tashkil etish, davlat organlari hujjatlari va tashabbuslarini, hisobotlarini e'lon qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish choralari bo'yicha takliflar, fikr va mulohazalarni qabul qilish; 3) davlat organlarining vakolatlari bilan bog'liq masalalar bo'yicha aholiga bepul bilim va maslahatlar berish.

Davlat organlari faoliyati ochiqligini ta'minlash yuzasidan olimlarning (Yu.Nisnevich, D.Mixeev, N.Karkin, M.Yanssen, V.Kastelnovo, T.Xarrison) ilmiy yondashuvlariga tayanilgan holda, tadqiqotchi tomonidan qonunchilikdagi ochiqlikni ta'minlashning 6 ta usuli orqali O'zbekistonda davlat organlari faoliyatining ochiqlik darajasi yoritib berilgan hamda quyidagi idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish taklifi bildirilgan:

“Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati to'g'risidagi axborotni rasmiy nashrlar, rasmiy veb-saytlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilish (chop etish) tartibi”;

“Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati to'g'risidagi axborotni ularning rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va yangilab borish tartibi”;

“Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati to'g'risidagi axborotni hamma kirishi mumkin bo'lgan xonalar va joylarga joylashtirish hamda yangilab borish tartibi”;

“Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati to'g'risidagi axborotni axborot-kutubxona va arxiv fondlari orqali taqdim etish tartibi”.

Ikkita paragrafni o'z ichiga olgan uchinchi bob **“Davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlashni takomillashtirish istiqbollari”** deb nomlanib, unda davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash sohasidagi xorijiy davlatlar tajribasi va xalqaro standartlar, shuningdek, davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlashni takomillashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar tahlil qilingan.

Muallif ayrim xorijiy olimlarning “shaxsning axborot olish huquqi kafolatlarini ta’minlashga xizmat qiluvchi qonunchilikning paydo bo’lishi dastlab, Shvetsiyada 1766-yil 2-dekabrda “Matbuot erkinligi to’g’risida”gi Qonunning qabul qilinishi bilan bog’liq”, degan fikrlariga qo’shilmagan holda ushbu huquq undan ham oldinroq, ya’ni 1695-yil 18-aprelda Buyuk Britaniyada “Matbuotni litsenziyalash to’g’risida”gi Qonun o’z kuchini yo’qotishi bilan senzura qo’yilishi hamda 1710-yil 10-aprelda “Mualliflik huquqlari to’g’risida”gi Qonun qabul qilinishi bilan bog’liq. Chunki, 1662-yilda qabul qilingan “Matbuotni litsenziyalash to’g’risida”gi Qonun bilan matbuot erkinligiga senzura o’rnatilgan bo’lgan, degan fikrni ilgari surgan.

Dissertant axborot olish huquqi shaxsning eng muhim huquqlari qatorida bo’lib, 1948-yil 10-dekabrda “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” (19-modda), 1950-yil 4-noyabrda “Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to’g’risidagi konvensiya” (10-modda) hamda 1966-yil 16-dekabrda “Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to’g’risidagi xalqaro pakt”da (19-modda) ushbu huquqlarga alohida moddalar ajratilganligini, shuningdek, BMTning **16 ta Barqaror rivojlanish maqsadlaridan (Sustainable Development Goal 16) biri** (10-maqsad) sifatida belgilab qo’yilganligini ta’kidlaydi.

Tadqiqotchi davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash bo’yicha 20 dan ortiq rivojlangan xorijiy mamlakatlar, jumladan, AQSH, Kanada, Norvegiya, Moldova, Litva, Rossiya qonunchiligini alohida o’rgangan. Unga ko’ra, AQSHda fuqarolarga taqdim etiladigan ochiq va foydalanish cheklangan yopiq axborotlarning yagona reyestri tasdiqlangan. Shuningdek, davlat organlari va tashkilotlari har yili kalendar yilning 1-fevralidan kechikmasdan, AQSH Adliya vazirligiga axborotdan foydalanuvchilarga o’tgan yili taqdim etilgan axborotlar, axborot taqdim etishga doir ko’rib chiqib qanoatlantirilgan va rad etilgan so’rovlar soni, ularni ko’rib chiqishga ketgan o’rtacha vaqt, to’lov asosida va to’lovdan ozod qilish tartibida taqdim etilgan axborotlar bo’yicha hisobot taqdim etadi va bu hammaning tanishishi uchun e’lon qilinadi.

Kanada qonunchiligida ham oshkor qilinishi va taqdim etilishi mumkin bo’lmagan axborotlar haqidagi qoidalar belgilangan bo’lib, ularga muvofiq: harbiy-strategik, uchinchi shaxslarga oid yoki shaxsga ziyon yetkazuvchi, ilmiy, siyosiy va iqtisodiy sir hisoblangan axborotlar oshkor qilinishi va taqdim etilishi mumkin emas. Tadqiqotchi Kanadada doimiy yashovchi istalgan shaxsning davlat organlaridan axborot huquqlari ta’minlanishi yuzasidan nazoratni amalga oshiruvchi Komissar “Information Commissioner” lavozimi joriy etilib, u har yili mansabdor shaxslar tomonidan davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash holati yuzasidan Kanada parlamentiga hamda keng jamoatchilikka hisobot berishini qayd etgan.

Dissertant ushbu ijobiy tajriba asosida O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan O’zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligini ta’minlash holati to’g’risidagi axborotini eshitish tartibini joriy etish taklifini bildirgan.

Shuningdek, tadqiqotchi xorijiy mamlakatlar qonunchiligining o’ziga xos jihatlari to’xtalib, Norvegiyada fuqaroning axborot taqdim etishga doir so’roviga davlat organlari tomonidan qisqa muddatda (uch kun) javob berilishini, Rossiyada

davlat organlari faoliyati ochiqligini ta'minlash sohasidagi qonunchilikni buzganlik uchun mansabdor shaxslar intizomiy, ma'muriy, fuqarolik va jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkinligini, Litvada taqdim etilishi cheklab qo'yilgan axborotlarning aniq ro'yxati va jurnalist etikasi bo'yicha Inspektor lavozimi mavjudligini ta'kidlaydi.

Tadqiqotchi tomonidan davlat organlari faoliyatining ochiqlik darajasi bo'yicha O'zbekistonning Jahon odil sudlov loyihasi ("World Justice Project") tashkilotining "Hukumatning ochiqligi" indikatori ("Open Government Factor"), Ochiq ma'lumotlar inventarizatsiyasi ("The Open Data Inventory") reytingi, "Transparency International" tashkilotining Korrupsiyani qabul qilish indeksida ("Corruption Perceptions Index"), Global ma'lumotlar barometri ("The Global Data Barometer"), BMTning Elektron hukumatni rivojlantirish reytingi ("E-Government Survey"), Xalqaro byudjet hamkorligi ("International Budget Partnership") tashkilotining Byudjet ochiqligi indeksi ("Open Budget Index")dagi o'rinlari tahlil qilinib, ularni yanada yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Dissertant kelgusida axborot olishga bo'lgan talabning ortib borishi, "Ochiq Hukumat" konsepsiyasining rivojlantirilishi bo'yicha olimlarning (V.Kastelnovo, M.Grimli, A.Yansen, D.Tvizeymana, A.Andersson, L.Flak, J.Rouz, J.Persson, L.Xiger, A.Mixan, S.Bouton, S.Tolbert, K.Mossberger) yondashuvlarini tahlil qilgan holda, quyidagilarni davlat organlari faoliyati ochiqligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari sifatida ajratib ko'rsatadi:

birinchi – davlat organlari tomonidan o'z faoliyati to'g'risida ommaviy hisobotlarni tayyorlash va e'lon qilish (bunday hisobotlarni tarqatish (har chorak va yil davomida) aholining davlat organlari faoliyati to'g'risida xabardorlik darajasini oshiradi; bunday hisobotlar davlat organining reytingini aniqlash mezonini hisoblanib, ular faoliyatining shaffofligini ko'rsatadi);

ikkinchi – ochiqlik mezonlariga ko'ra davlat organlarining faoliyati bo'yicha ochiqlik reytingini e'lon qilib borish (olimlar tomonidan bunday organlarning reytinglarini tuzish tajribasi davlat hokimiyati faoliyatida shaffoflikni ta'minlashni rag'batlantirish shakllaridan biri sifatida juda muvaffaqiyatli sanaladi);

uchinchi – aholi o'rtasida keng ko'lamlı tushuntirish ishlarini olib borish (maqsadlar, imtiyozlar va jamoatchilik ishtiroki to'g'risida axborot olish, so'rov bilan murojaat qilish va boshqalar);

to'rtinchi – qayta aloqa tizimi orqali fuqarolarning nafaqat qarorlar qabul qilish jarayonida hamda qabul qilingan qarorlar samaradorligi bo'yicha fikr-mulohazalarini ochiq muhokama qilish imkoniyatlarini oshirish.

Tadqiqotchi o'tgan davr mobaynida mamlakatimizda fuqarolarning axborot olish huquqi kafolatlarini va davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlashga xizmat qiluvchi mustahkam qonunchilik bazasi yaratilganligini, navbatdagi bosqichda jamiyatni axborot bilan ta'minlashga taalluqli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning me'yorlarini unifikatsiyalashtirgan holda, O'zbekiston Respublikasining Axborot kodeksini qabul qilish maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelgan. Uning qayd etishicha, Rossiya va Tojikiston davlatlarida bu borada ishlar boshlangan.

Dissertantning ta'kidlashicha, qonunchilik hujjatlarida ayrim davlat organlari (ichki ishlar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat) mansabdor shaxslarining hisobotini eshitish tizimi mavjudligini inobatga olib, quyi bo'g'in adliya, prokuratura va sud

hokimiyati organlari rahbarlarining xalq bilan doimiy manzilli muloqotini yo‘lga qo‘yish maqsadida ularning fuqarolar yig‘inlarida hisobotlarni eshitish tartibini joriy etish zarur.

Shuningdek, tadqiqotchi davlat organlari tomonidan e‘lon qilinayotgan ma‘lumotlarning sifati, foydaliligi va dolzarbligini aholi tomonidan baholash tizimini joriy etish, “ochiqbudget.uz” hamda Ochiq ma‘lumotlar portallarini takomillashtirish, davlat organlari axborot xizmatlarining tezkor ichki axborot almashish mexanizmlarini yaratish, davlat organlarining hay‘at majlislarida har yarim yilda kamida bir marta ochiqlikni ta‘minlash sohasidagi qonunchilik hujjatlarining ijrosini tanqidiy muhokama qilish amaliyotini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq, degan fikrni bildirgan.

XULOSA

“Davlat organlari faoliyati ochiqligini ta‘minlashning tashkiliy-huquqiy jihatlari” mavzusidagi tadqiqot ishi natijasida quyidagi ilmiy-nazariy hamda qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar

1. “**Davlat organlari faoliyatining ochiqligi**” tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta‘rifi ishlab chiqildi: *“Davlat organlari faoliyatining ochiqligi davlat organlari tomonidan aholi va tadbirkorlik subyektlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining foydalanishi uchun o‘z faoliyati to‘g‘risida ishonchli, aniq va to‘g‘ri axborotlarni izlash, o‘z vaqtida olish hamda tarqatish imkonini beruvchi shart-sharoitlarning yaratilganligidir”*.

